

“YASHIL SINIF XONASI VA TABIAT BILAN ALOQA”**Ahmadjonova Muhayyo Azimboy qizi****Qo'qon Universiteti Andijon filiali****Masofaviy ta'lim 25-06 talabasi****Tel: 99 910 36 73****Xalimjanov Abduqunduz Rahimjon o'g'li****“Kompyuter injiniring va raqamli texnologiyalar” kafedrası o'qituvchisi****Qo'qon Universiteti Andijon filiali****Email: xalimjonov12.34@gmail.com****<https://doi.org/10.5281/zenodo.17254768>**

Annotatsiya: Bugungi kunda ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri – o'quvchi-yoshlarda tabiatga mehr tuyg'usini shakllantirishdir. Jamiyat taraqqiyoti faqat ilm-fan va texnologiyalar bilan emas, balki insonning tabiat bilan uyg'un hayoti bilan ham ta'minlanadi. Shu nuqtai nazardan “yashil sinf xonasi” g'oyasi ekologik ta'limning zamonaviy usullaridan biri hisoblanadi. U orqali bolalar tabiat bilan bevosita aloqa qiladi, bilimlarni nazariy emas, balki amaliy jarayon orqali egallaydilar.

Kalit so'zlar: yashil sinf, Yangi O'zbekiston, tabiatga mehr, o'quv maydonchasi, ekologik tarbiya

Atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, resurs ko'p ishlatadigan iqtisodiyotdan taraqqiyotning innovatsion modeliga o'tish hisobga olingan holda barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash ko'p jihatdan XXI asrda har qanday davlatni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab beradi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan ilgari surilayotgan “Barqaror rivojlanish” konsepsiyasi dunyo mamlakatlarining asosiy maqsadiga aylangan. XXI asrda barcha davlatlarning yuqori iqtisodiy o'sishga erishish maqsadi barqaror rivojlanish maqsadi bilan almashdi. Bu o'z navbatida, jahon iqtisodiyotning barcha yo'nalishlari: qishloq xo'jaligi, sanoat, transport, moliya, energetika, qurblish sohalari barchasi “yashil” tus olishi muhimligini anglatadi. Amalga oshiralayotgan tizimli chora-tadbirlar qatorida “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda tasdiqlangan farmonida, birinchidan, “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida har yil kamida 200 million tup daraxt ekish va respublikaning 10 ta hududida aerobiologik monitoring tizimini yo'lga qo'yish belgilangan.

Ikkinchidan, Orol dengizining qurigan tubida qo'shimcha 500 ming gektar yashil maydonlarni barpo etib, 2026-yil yakuniga qadar ularning umumiy hajmini 2,5 million gektarga yoki hududning 78 foiziga yetkazish nazarda tutilgan.

“Yashil sinf xonasi” orqali tabiat bilan muloqotning o'quvchilarning ma'naviy, axloqiy va ekologik rivojlanishiga ta'sirini tahlil qilish.

1. Yashil sinf xonasi tushunchasi: “Yashil sinf xonasi” – bu tabiat qo'ynida tashkil etilgan o'quv maydonchasi yoki ta'limiy muhitdir. Unda bolalar an'anaviy sinf xonasida emas, balki ochiq havoda, yashil muhitda ta'lim oladilar. Bu usul nafaqat bilim berish, balki psixologik va fiziologik sog'lomlashtirish vazifasini ham bajaradi.

2. Tabiat bilan aloqaning o'quvchilar rivojlanishiga ta'siri. Ilmiy-ta'limiy jihatdan – bolalar tabiatni kuzatish, tajriba o'tkazish, tabiiy jarayonlarni bevosita o'rganish imkoniga ega bo'ladilar. Bu ularning mantiqiy fikrlashini va ijodiy qobiliyatini oshiradi. Axloqiy jihatdan –

tabiat bilan muloqotda bolalarda mehr-shafqat, mas'uliyat va ekologik madaniyat shakllanadi. Sog'lom turmush tarzi – ochiq havoda dars o'tish bolalarning jismoniy sog'lig'iga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, stressni kamaytiradi.

3. Yashil sinf xonasida ta'lim jarayonini tashkil etish usullari: Darslarda o'quvchilarni tabiat hodisalariga oid turli tajribalar o'tkazishga jalb qilish. O'simlik va hayvonlarni kuzatish, ularning hayot siklini o'rganish. Amaliy mashg'ulotlar: ko'chat ekish, gulzorlarni parvarishlash, hovlida ekologik tozalash ishlari. Interaktiv o'yinlar va ijodiy topshiriqlar orqali tabiatni anglash.

4. Muammolar va yechimlar

Hozirgi paytda barcha ta'lim muassasalarida yashil sinf xonasi mavjud emas. Ba'zan moddiy-texnik baza yetarli emas yoki pedagoglarning ekologik madaniyati past bo'ladi. Shu bois: Ta'lim muassasalari huzurida maxsus ekologik maydonlar yaratish; O'quvchilar uchun ekologik-pedagogik seminarlar o'tkazish; Davlat va jamoat tashkilotlari hamkorligini kuchaytirish zarur. "Yashil makon" umummilliy loyihasi bir yillik tadbir emas. Uning doirasida kelgusi besh yilda 1 milliard tup daraxt ko'chatini ekishni maqsad qilganmiz. Bu umummilliy harakatning natijasi har bir mahallada ko'rinishi kerak, bu savobli ishni havas bilan qilish kerak", dedi Prezident Shavkat Mirziyoyev. Ma'lumki, davlatimiz rahbari yurtimizdagi barcha shaharlar, tuman markazlari hamda aholi punktlarida ekologik vaziyat va havo tozaligini yaxshilash maqsadida "Yashil makon" umummilliy loyihasini amalga oshirishga bag'ishlangan videoselektorda 2021-yil 10-dekabrga qadar daraxt ekish bo'yicha "dolzarb 40 kunlik" e'lon qilindi. Bunday keng ko'lamli tashabbusning amalga oshirilishi natijasida shaharlarimizdagi yashil maydonlar hududi hozirgi **8 foizdan 30 foizga** oshiriladi.

Xulosa

Yashil sinf xonasi – zamonaviy ta'limda tabiat bilan uyg'unlik asosida ishlaydigan innovatsion yo'nalishdir. U orqali bolalar bilim olish jarayonida tabiat bilan yaqin muloqot qiladilar, ekologik madaniyat va ma'naviy kamolotga erishadilar. Shu bilan birga, tabiat qo'ynida o'tkazilgan darslar sog'lom avlod tarbiyasiga xizmat qiladi. Shu sababli yashil sinf xonasini barcha ta'lim muassasalarida joriy etish muhim va dolzarb hisoblanadi..

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021
2. Abdullaev A. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish. – Toshkent, 2020
3. O'quv-metodik qo'llanma: Ekologik tarbiya va ta'lim yo'nalishlari. Toshkent, 2018.
4. UNESCO. Green Classroom Concept. – 2019.